**Surxondaryo viloyatida 2017 yil yanvar-dekabrda iste'mol bozori**

Bugungi kunda, aholi ijtimoiy himoyasini muttasil yaxshilash bo'yicha izchil amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida viloyatda aholi sonining o'sishi, daromadlarining ko'payishi kuzatilmoqda, aholining ish haqi va pensiya- larning oshirilishi natijasida esa oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlariga bo'lgan talab o'zgarmoqda va chakana savdo aylanmasining hajmi oshmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning 12 oyida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,2 foizga oshdi.

Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 7,5 foizni tashkil etdi. Benzin, tamaki mahsulotlari va iste'mol tovarlariga bo'lgan talabning oshishi yirik korxonalarning o'sish sur'atlarini o'tgan yilga nisbatan 10,4 foizga ko'payishiga olib keldi.

YANVAR-DEKABRDA YIRIK KORXONALARNING JAMI CHAKANA SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI, FOIZDA.

